TINCHLIK GAROVI YOKI URUSH QURBONIMI? XONZODABEGIMNING SHAYBONIYXON BILAN NIKOHI MANBALAR TALQINIDA

Nafasova Ruxshona Musurmon qizi
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti
Sharq mamlakatlari tarixi, fors-ingliz 2-bosqich talabasi
+998886331607, nafasovaruxshona1607@gmail.com
Ilmiy rahbar: ***I.B. Xudaynazarov***
https://doi.org/10.5281/zenodo.24186095

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning opasi Xonzodabegim (1478–1545) va Muhammad Shayboniyxon o'rtasidagi nikoh XVI asr manbalari asosida qiyosiy tahlil qilinadi. "Boburnoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma"si, Gulbadanbegimning "Humoyunnoma"si va Abulfazlning "Akbarnoma"sida bu voqea turlicha – asirlik, sulh sharti va hatto ishq nikohi sifatida talqin qilinganini ko'rsatadi. Muallif Xonzodabegim taqdirini Temuriylar, Shayboniylar va Safaviylar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar kontekstida o'rganib, sulolaviy nikohlarda ayolning faqat "garov" emas, balki faol siyosiy ishtirokchi ham bo'lganini asoslaydi.
Kalit so'zlar: Xonzodabegim, Shayboniyxon, Bobur, Samarqand qamali, sulolaviy nikoh, "Boburnoma", "Humoyunnoma", Shoh Ismoil, Marv jangi, ayollar tarixi.

ЗАЛОГ МИРА ИЛИ ВОЕННАЯ ДОБЫЧА? БРАК ХАНЗАДЕ-БЕГИМ И ШЕЙБАНИ-ХАНА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ИСТОЧНИКОВ

Аннотация: В статье на основе источников XVI века сравнительно анализируется брак старшей сестры Захир ад-дина Мухаммада Бабура Ханзаде-бегим (1478–1545) с Мухаммадом Шейбани-ханом. Показано, что «Бабур-наме», «Шейбани-наме» Мухаммада Салиха, «Хумаюн-наме» Гульбаданбегим и «Акбар-наме» Абу-л-Фазла по-разному интерпретируют это событие – как плен, условие мира и даже брак по любви. Судьба Ханзаде-бегим рассматривается в контексте отношений Тимуридов, Шейбанидов и Сефевидов; обосновывается, что в династических браках женщина выступала не только «заложницей», но и активным политическим участником.
Ключевые слова: Ханзаде-бегим, Шейбани-хан, Бабур, осада Самарканда, династический брак, «Бабур-наме», «Хумаюн-наме», шах Исмаил.

A PLEDGE OF PEACE OR A SPOIL OF WAR? THE MARRIAGE OF KHANZADA BEGUM AND SHAYBANI KHAN IN THE SOURCES

Abstract: The article offers a comparative analysis of the marriage between Khanzada Begum (1478–1545), the elder sister of Zahir al-Din Muhammad Babur, and Muhammad Shaybani Khan, based on sixteenth-century sources. It shows that the Baburnama, Muhammad Salih's Shaybani-nama, Gulbadan Begum's Humayun-nama and Abu'l-Fazl's Akbarnama interpret the event differently – as captivity, as a condition of peace and even as a love match. Placing Khanzada Begum's fate within Timurid–Shaybanid–Safavid relations, the article argues that women in dynastic marriages were not merely "pledges" but also active political agents.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Key words: Khanzada Begum, Shaybani Khan, Babur, siege of Samarkand, dynastic marriage, Baburnama, Humayun-nama, Shah Ismail.

KIRISH:

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 31-avgustda so'zlagan nutqida "eng katta maktab, eng katta tarbiya – tarixning o'zi" ekanini ta'kidlab, yoshlarimiz "tariximizni yaxshi bilishi, boshqalardan emas, o'zimizning bobolarimizdan namuna olishi kerak"ligini qayd etgan edi[1]. Tarixni bilish esa faqat hukmdorlar va janglarni emas, balki o'sha davrda yashagan insonlarning, jumladan, ayollarning taqdirini ham bilish demakdir.

XVI asr boshidagi Movarounnahr tarixi odatda ikki erkak – Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniyxon o'rtasidagi kurash sifatida hikoya qilinadi. Bu kurash Temuriylar davrining tugashi va Shayboniylar sulolasining boshlanishini belgilab berdi. Biroq bu ikki raqib o'rtasida yana bir shaxs bor edi. U Boburning opasi, keyinroq esa Shayboniyxonning xotini bo'lgan Xonzodabegimdir. Uning hayoti bir necha sulolalar – Temuriylar, Shayboniylar, Safaviylar va Boburiylar tarixini bir-biriga bog'laydi. Xonzodabegimning Shayboniyxon bilan nikohi tarixchilar orasida hanuz bahsli. Bu nikoh nima edi: mag'lub tomonning o'ljasimi, sulh shartimi yoki ikki taraf uchun foydali siyosiy ittifoqmi? Qizig'i shundaki, bu savolga XVI asr manbalarining o'zi ham turlicha javob beradi. Bu savol faqat bir ayolning shaxsiy taqdiri bilan bog'liq emas. Unga javob berish orqali biz XVI asr boshidagi siyosiy madaniyatning muhim jihatlarini – sulh qanday tuzilgani, qonuniylik qanday asoslangani, mag'lub va g'olib tomonlar o'rtasidagi munosabatlar qanday qurilganini tushunishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, Xonzodabegim taqdiri katta siyosatni "ichkaridan", oila va saroy darajasida ko'rish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi Xonzodabegimning Shayboniyxon bilan nikohi haqidagi ma'lumotlarni turli manbalar asosida qiyosiy tahlil qilish, bu talqinlarning farqlanish sabablarini aniqlash va Xonzodabegimning sulolaviy siyosatdagi o'rnini baholashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy manbashunoslik, tarixiy-biografik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda o'zbek tarixshunosligida birinchi marta Xonzodabegim taqdiri to'rt asosiy manba qiyosi orqali, "sulolaviy nikohda ayolning roli" masalasi nuqtai nazaridan yaxlit tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM:

Xonzodabegim haqidagi asosiy ma'lumotlar uchta temuriy-boburiy manbada saqlangan. Birinchisi – Boburning o'z xotiralari "Boburnoma". Ikkinchisi – Boburning qizi Gulbadanbegim yozgan "Humoyunnoma". Uchinchisi – Akbar saroyining tarixchisi Abulfazl Allomiyning "Akbarnoma"si. Bunga qarama-qarshi tomondan – Shayboniyxon saroyida yaratilgan Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostonini qo'shish kerak. XIX asr oxiri – XX asr boshida ingliz sharqshunoslari Annette va Genri Beverijlar "Boburnoma", "Humoyunnoma" va "Akbarnoma"ni ingliz tiliga tarjima qilib, keng izohlar bilan nashr ettirishdi[2]. Ularning izohlarida Xonzodabegim

[1] Mirziyoyev Sh. M. Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni munosabati bilan so'zlagan nutqidan 2024.31.avgust.

[2] Gulbadan Begam. The History of Humāyūn Transl. A. S. Beveridge. – London: Royal Asiatic Society, 1902.-B.148-156-177

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

taqdiriga oid qimmatli kuzatishlar mavjud. So'nggi o'n yilliklarda bu masalaga ayollar tarixi nuqtai nazaridan qiziqish kuchaydi. Ayniqsa, hind tarixchisi Rubi Lal ilk Boburiylar saroyida ayollarning o'rni va oilaviy-siyosiy munosabatlarni tadqiq qilib, Xonzodabegimni sulola ichidagi muhim siyosiy shaxs sifatida ko'rsatdi[3]. Nemis sharqshunosi Annemari Shimmel ham Boburiylar saroyidagi ayollarning vositachilik rolini alohida qayd etgan[4]. O'zbekiston tarixshunosligida esa Xonzodabegim nomi asosan Bobur hayotiga bag'ishlangan asarlar va badiiy adabiyotda tilga olinadi. Uning taqdiri turli manbalar qiyosi asosida maxsus tadqiq etilmagan. Ana shu bo'shliq mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi. Bu tadqiqotlar tayangan birlamchi manbalarning o'zi ham alohida e'tiborga loyiq. Tahlilga o'tishdan oldin asosiy manbalarning xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tish zarur, chunki ularning har biri voqeaga o'ziga xos nuqtai nazardan qaraydi.

"Boburnoma" – voqealarning bevosita ishtirokchisi yozgan xotiralar. Uning eng katta afzalligi – muallifning voqealarga yaqinligi. Biroq aynan shu yaqinlik uning zaif tomoni hamdir: Bobur o'zi uchun noqulay voqealarni qisqa yozadi yoki umuman tilga olmaydi. Shuningdek, asarda ba'zi yillarga oid qismlar saqlanmagan, bu esa voqealar ketma-ketligini tiklashni qiyinlashtiradi.

"Humoyunnoma"ni Boburning qizi Gulbadanbegim XVI asrning ikkinchi yarmida, Akbarning topshirig'i bilan, voqealardan ancha keyin yozgan[5]. Uning asosiy manbasi – muallifning shaxsiy xotiralari va oiladagi katta ayollarning hikoyalari. Shu sababli asarda harbiy-siyosiy voqealardan ko'ra oilaviy hayot, to'ylar, sovg'alar va ayollar o'rtasidagi munosabatlar batafsilroq yoritilgan. Ayollar tarixi uchun bu asar bebaho manbadir.

"Akbarnoma" – Akbar saroyining rasmiy tarixi. Uning muallifi Abulfazl sulola obro'sini ko'tarishni asosiy maqsad qilgan. Shuning uchun asarda Boburiylar xonadoni ayollari, jumladan, Xonzodabegim ham sadoqatli va olijanob shaxslar sifatida tasvirlanadi.

Muhammad Solihning "Shayboniynoma"si esa qarama-qarshi tomonning manbasidir. Bu turkiy tilda yozilgan doston bo'lib, Shayboniyxon hayotligida, uning saroyida yaratilgan. Asarning maqsadi xonni madh etish edi, shuning uchun undagi ma'lumotlarga ham tanqidiy yondashish zarur.

Ammo aynan shu xilma-xillik voqeani turli tomondan ko'rish imkonini beradi.

Manbalar bilan tanishib chiqqach, endi Xonzodabegimning o'zilari bilan tanishib chiqsak. Xonzodabegim taxminan 1478-yilda Andijonda tug'ilgan. Uning otasi Farg'ona hokimi Umarshayx Mirzo, onasi esa Mo'g'uliston xoni Yunusxonning qizi Qutlug' Nigorxonim edi[6]. Shunday qilib, u otasi tomonidan Amir Temurga, onasi tomonidan Chingizxonga borib taqaladigan nasabga ega edi. Bu ikki nasab birlashuvi o'sha davr siyosiy madaniyatida juda katta ahamiyatga ega edi va keyinchalik uning taqdirida hal qiluvchi rol o'ynadi. Xonzodabegim Boburdan besh yosh katta edi. Bobur o'z xotiralarida opasiga doim katta hurmat bilan munosabatda bo'ladi. Bu holat ham bejiz emas. 1494-

---

[3] Lal R. Domesticity and Power in the Early Mughal World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – B.226.

[4] Schimmel A. The Empire of the Great Mughals: History, Art and Culture. – London: Reaktion Books, 2004. – B. 145.

[5] Gulbadan Begam. The History of Humāyūn / Transl. A. S. Beveridge. – London, 1902. – B.25.

[6] Bobur Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 107.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yilda otasi to‘satdan vafot etgach, o‘n bir yoshli Bobur taxtga o‘tirdi va keyingi yillar uning uchun tinimsiz urushlar bilan o‘tdi. Bu davrda oiladagi katta ayollar – buvisi Eson Davlatbegim, onasi Qutlug‘ Nigorxonim va opasi Xonzodabegim yosh hukmdorning eng yaqin tayanchi edilar. Xonzodabegim hayotidagi eng keskin burilish Samarqand uchun kurash bilan bog‘liq. 1500-yilda Bobur Shayboniyxondan Samarqandni qaytarib oldi. Ammo 1501-yilda Saripul yonidagi jangda mag‘lub bo‘lgach, shahar ichida qamalda qolishga majbur bo‘ldi. Bir necha oylik qamal shaharda ochlikni keltirib chiqardi va Bobur oxir-oqibat Samarqandni tark etdi[7]. Aynan shu paytda Xonzodabegim Shayboniyxon qo‘lida qoldi. Bu voqeaning qanday sodir bo‘lgani esa manbalarda turlicha bayon etiladi.

Birinchi talqin – Boburniki. “Boburnoma”da voqea juda qisqa va hissiyotlarsiz yozilgan: Samarqanddan chiqib ketish paytida opasi Xonzodabegim Shayboniyxonga tushib qolgan[8]. Bobur bu haqda batafsil to‘xtalmaydi, voqeaning sabablarini izohlamaydi. Bunday qisqalikni tushunish mumkin: o‘zini doim jasur va or-nomusli hukmdor sifatida ko‘rsatgan Bobur uchun opasini dushman qo‘lida qoldirib ketish og‘ir xotira edi.

Ikkinchi talqin – Gulbadanbegimniki. Uning “Humoyunnoma”sida Shayboniyxon Boburga, agar opasini unga nikohlab bersa, ular o‘rtasida sulh va mustahkam ittifoq bo‘lishini taklif qilgani, natijada Bobur opasini xonga bergani aytiladi[9]. Bu talqinda voqea endi asirlik emas, balki siyosiy kelishuv, sulh shartidir. Muhimi shundaki, Gulbadanbegim voqealardan bir necha o‘n yil keyin, Akbar davrida, oiladagi katta ayollar xotiralari asosida yozgan.

Uchinchi talqin – Shayboniylar tomonidan. Genri Beverij Muhammad Solihning “Shayboniynoma”siga tayanib, bu nikohni ishq nikohi sifatida ko‘rsatadi va hatto Bobur bilan Shayboniyxon o‘rtasidagi kelishuvga Xonzodabegimning shaharda qolishi ham kirgan bo‘lishi mumkin, degan fikrni bildiradi[10]. Shayboniyxon saroy shoirining nuqtai nazaridan bu tushunarli: g‘olib xon zo‘ravon emas, balki olijanob kuyov sifatida ko‘rsatilishi kerak edi.

Bu uch talqinni yonma-yon qo‘yganda, tarixchi uchun muhim savol tug‘iladi: qaysi biri haqiqatga yaqin? Bizningcha, bu savolga yagona javob berish noto‘g‘ri. Har bir manba voqeaning bir qirrasini aks ettiradi. Harbiy nuqtai nazardan Xonzodabegim haqiqatan ham mag‘lub tomonning odami sifatida g‘olib qo‘lida qolgan. Siyosiy nuqtai nazardan esa bu holat sulh va Boburning shahardan xavfsiz chiqib ketishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Shayboniyxon uchun esa Temuriy va Chingiziy qonini o‘zida birlashtirgan malika bilan nikoh o‘z qonuniyligini mustahkamlashning muhim vositasi edi. Talqinlar o‘rtasidagi farqni yozilish vaqti bilan ham izohlash mumkin. Muhammad Solih voqealar endigina sodir bo‘lgan paytda, g‘olib xonning saroyida yozgan. Bobur o‘z xotiralarini keyinroq, Hindistonda, ko‘p yillik tajriba va yo‘qotishlardan so‘ng qayta ishlagan. Gulbadanbegim esa voqealardan sakson

---

[7] Ahmedov B. A. Государство кочевых узбеков. – M.: Наука, 1965. – B. 388.

[8] Bobur Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002.-B.210.

[9] Gulbadan Begam. The History of Humāyūn, Lal R. Domesticity and Power in the Early Mughal World. – B. 130.

[10] Lal R. Domesticity and Power in the Early Mughal World. – B. 130.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yildan ko'proq vaqt o'tib, Boburiylar qudratli imperiyaga aylangan davrda qalam tebratgan. Uning uchun sulolaning sharafini saqlash muhim edi, shuning uchun "asirlik" o'rniga "sulh" tushunchasi tanlangani tabiiy. Shunday qilib, vaqt o'tgan sari voqea talqini ham o'zgarib borgan: dushman uchun g'alaba va ishq, ishtirokchi uchun og'ir xotira, avlodlar uchun esa sharafli murosa.

Talqinlar farqini tushunish uchun bu nikohning siyosiy mazmuniga ham nazar tashlash kerak. Turkiy-mo'g'ul siyosiy an'anasida sulolaviy nikohlar alohida o'rin tutgan. Yengilgan sulola malikasiga uylanish g'olib hukmdorga mag'lub sulolaning merosiga da'vo qilish imkonini bergan. Amir Temurning o'zi ham Chingiziy malikaga uylanib, "ko'ragon", ya'ni "xon kuyovi" unvonini olgani ma'lum. Bunday nikohlar odatda faqat ikki shaxs o'rtasidagi ittifoq emas, balki ikki xonadon, ba'zan esa ikki davlat o'rtasidagi shartnoma vazifasini bajargan. Kelin o'zi bilan birga xizmatkorlar, sovg'alar va, eng muhimi, o'z oilasining siyosiy aloqalarini ham olib kelgan. Shu sababli nikohga rozilik berish ham, uni bekor qilish ham siyosiy qaror hisoblangan. Shayboniyxon uchun Xonzodabegim bilan nikoh xuddi shunday ramziy ahamiyatga ega edi. Samarqand Amir Temur poytaxti edi. Uni egallagan Shayboniyxon nafaqat shaharni, balki Temuriylar merosini ham qo'lga kiritganini ko'rsatishi lozim edi. Temuriy malika bilan nikoh bu da'voni oila darajasida mustahkamlagan. Bizningcha, Shayboniyxonning bu nikohga intilishi "Shayboniynoma"da aytilgan ishqdan ko'ra, aynan shu siyosiy hisob-kitob bilan izohlanadi. Bobur uchun esa bu nikoh, ehtimol, yagona chiqish yo'li edi. Och qolgan shahar, tarqalib ketayotgan qo'shin va yordam bermagan ittifoqchilar sharoitida u hayotini va qolgan oila a'zolarini saqlab qolish uchun og'ir murosaga borgan. Shu ma'noda Xonzodabegim haqiqatan ham tinchlik garovi edi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: nega aynan Xonzodabegim? Boburning boshqa opa-singillari ham bor edi, javob uning yoshi va maqomi bilan bog'liq. Xonzodabegim Umarshayx Mirzoning katta qizi bo'lib, o'sha paytda yigirma uch yoshlarda edi. Bundan tashqari, u onasi tomonidan Yunusxon nabirasi bo'lgani uchun Chingiziy qonga ham ega edi. Chingiziy bo'lgan Shayboniyxon uchun bunday malika ham Temuriylar, ham Chingiziylar an'anasi nuqtai nazaridan eng munosib nomzod hisoblangan. Nikohdan keyingi yillar ham Xonzodabegim uchun oson kechmadi. Xonzodabegim Shayboniyxon saroyida bir necha yil yashadi. Bu nikohdan Xurramshoh ismli o'g'il tug'ilgan, ammo u yoshligida vafot etgan[11]. Ehtimol, bu farzand ikki sulolani bog'lovchi rishta bo'lishi mumkin edi. Uning bevaqt o'limi esa nikohning siyosiy mazmunini zaiflashtirdi. Keyinchalik Shayboniyxon Xonzodabegimni taloq qiladi. Abulfazlning "Akbarnoma"sida buning sababi aniq ko'rsatiladi: begim bahsli masalalarda akasi tarafini olgan[12]. Bu juda muhim ma'lumot. Demak, Xonzodabegim Shayboniyxon saroyida asira bo'lib qolmagan, balki o'z oilasi manfaatlarini himoya qilishga harakat qilgan. Aynan shuning uchun ham u xon uchun noqulay shaxsga aylangan. Taloqdan keyin Shayboniyxon uni o'z yaqinlaridan biriga turmushga bergan. "Boburnoma"da bu shaxs Sayyid Hodiy deb ko'rsatilib, u 1510-yilgi Marv jangida halok bo'lgani qayd etiladi. Shunday qilib, Xonzodabegim taqdiri yana bir bor urush maydonidagi voqealarga bog'lanib qoldi. Begim taqdiridagi navbatdagi burilish yana jang maydonida hal bo'ldi. 1510-yil dekabrida Marv yaqinida Shoh Ismoil Safaviy Shayboniyxon qo'shinini tor-mor qildi, xonning o'zi esa halok bo'ldi. Xonzodabegim bu safar Safaviylar qo'liga tushdi. Lekin Shoh Ismoil uni o'lja sifatida ushlab qolmadi. 1511-yilda u begimni munosib hurmat va qo'riqchilar bilan Qunduzda turgan Boburga qaytarib yubordi. Shoh elchisi bilan birga do'stlik va harbiy yordam

[11] The Baburnama / Transl. W. M. Thackston. – B. 11.

[12] Abu'l-Fazl. The Akbar Nāma / Transl. H. Beveridge. – Vol. 1. – B. 222.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

taklifini ham yo'llagan, Bobur esa javob tariqasida o'z elchisini sovg'alar bilan jo'natgan[13].Bu voqeani faqat insoniy olijanoblik sifatida baholash yetarli emas. Shoh Ismoil uchun Xonzodabegimni qaytarish aniq siyosiy qadam edi. U Shayboniylarga qarshi kurashda Boburni ittifoqchi qilishni maqsad qilgan va bu ittifoqni opasini sharaf bilan qaytarish orqali boshlagan. Shu ma'noda, Xonzodabegim bu safar ham siyosiy munosabatlarning markazida turdi – endi Safaviylar va Bobur o'rtasidagi ittifoqning ramzi sifatida. Bu yerda qiziq bir tarixiy jihat bor. O'n yil oldin Xonzodabegim Bobur va Shayboniyxon o'rtasidagi sulhning garovi bo'lgan bo'lsa, endi u Shayboniylarga qarshi ittifoqning ramziga aylandi. Bir ayolning taqdiri orqali mintaqadagi kuchlar muvozanati qanday tez o'zgarganini ko'rish mumkin. Bu ittifoqning keyingi taqdiri ham e'tiborga loyiq. Safaviylar yordamida Bobur 1511-yilda Samarqandni uchinchi marta egalladi[14]. Biroq bu g'alaba uzoqqa cho'zilmadi. Shoh Ismoil bilan ittifoq va qizilboshlar libosini kiyish sunniy aholi orasida norozilik uyg'otdi, 1512-yilda esa G'ijduvon yonidagi jangda Safaviylar qo'shini Shayboniylardan mag'lub bo'ldi[15]. Shundan so'ng Bobur Movarounnahrni butunlay tark etib, Kobulga qaytdi va keyinchalik Hindistonga yo'l oldi. Shunday qilib, Xonzodabegimning qaytarilishi bilan boshlangan ittifoq Boburga vaqtinchalik muvaffaqiyat keltirgan bo'lsa-da, uning Movarounnahrdagi siyosiy kelajagini hal qila olmadi[16]. Xonzodabegim nuqtai nazaridan esa bu voqealar uning hayotidagi eng og'ir davrning yakuni edi. U o'n yildan ortiq vaqt mobaynida oilasidan ajralgan holda yashagan, farzandidan va ikki turmush o'rtog'idan ayrilgan edi. Gulbadanbegim yozishicha, keyinchalik Boburiylar xonadonida unga alohida hurmat bilan qarashgan. Bu hurmat faqat uning nasabi bilan emas, balki u boshidan kechirgan sinovlar va oila uchun qilgan xizmatlarining e'tirofi bilan ham bog'liq edi. Uzoq ayriliqdan so'ng begim hayotida yangi davr boshlandi. Boburga qaytganidan keyin Xonzodabegim Muhammad Mahdi Xoja bilan turmush qurdi[17]. Endi u Bobur oilasining eng katta va eng hurmatli ayollaridan biriga aylandi. Gulbadanbegim uni katta mehr va hurmat bilan tilga oladi. Masalan, 1537-yilda Mahdi Xojaning singlisi Sultonim va Hindol Mirzoning to'yini aynan Xonzodabegim tashkil qilgani va to'yga juda katta sovg'alar bergani "Humoyunnoma"da batafsil tasvirlangan. Boburning vafotidan keyin uning o'g'illari – Humoyun, Komron, Askariy va Hindol o'rtasida taxt uchun kurash boshlandi. Bu davrda Xonzodabegim sulola ichidagi eng muhim vositachilardan biriga aylandi. Annemari Shimmel va Rubi Lal uning jiyanlari o'rtasidagi nizolarni yumshatishga, ularni akasi Humoyunga bo'ysunishga undashga harakat qilganini qayd etishadi.

---

[13] Babur Nama / Transl. A. S. Beveridge; ed. D. Hiro. – B. 198.

[14] Abu'l-Fazl. The Akbar Nāma / Transl. H. Beveridge. – Vol. 1. – B. 134

[15] Erskine W. A History of India under the Two First Sovereigns of the House of Taimur, Báber and Humáyun. – Vol. 1. – London: Longman, Brown, Green, and Longmans, 1854. – B. 325–327.

[16] McChesney R. D. Central Asia: Foundations of Change. – Princeton: Darwin Press, 1996. – B. 234.

[17] Gulbadan Begam. The History of Humāyūn. – B. 126–128.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Xonzodabegimning hayoti ham ana shunday vositachilik safari chog'ida tugadi. 1545-yil sentyabrida u Humoyun bilan birga Qandahordan Komron Mirzo bilan uchrashish uchun yo'lga chiqdi. Qabalchak degan joyda uch kunlik isitmadan so'ng vafot etdi. Avval shu yerda dafn etilgan, uch oydan keyin esa jasadi Kobulga, Bog'i Boburga – sevimli ukasi yoniga ko'chirilgan[18]. Shunday qilib, hayoti davomida turli sulolalar orasida sarson bo'lgan begim oxir-oqibat ukasining yonidan joy topdi. Masalan, "qurbonlik" g'oyasi Gulbadanbegim talqiniga yaqin, ammo "Boburnoma"ning qisqa va sovuq ohangi yoki "Shayboniynoma"dagi ishq haqidagi gaplar bu obrazga to'liq mos kelmaydi. Shuning uchun Xonzodabegimni o'rganishda badiiy obrazni emas, balki manbalarning o'zini asos qilib olish kerak. Shunga qaramay, badiiy adabiyotning ahamiyatini kamsitib bo'lmaydi. Aynan romanlar va ularning ekranlashtirilgan talqinlari tufayli Xonzodabegim nomi keng jamoatchilikka ma'lum bo'ldi. Tarixchining vazifasi esa bu qiziqishni ilmiy asosga qo'yish, ya'ni xalq xotirasidagi obrazni manbalar bilan solishtirib, haqiqatga yaqinroq manzarani tiklashdir. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, asosiy savolga qaytamiz. Boburiylar saroyida u to'ylarni tashkil qilgan, sovg'alar bergan, jiyanlarini yarashtirishga harakat qilgan. Hatto uning o'limi ham siyosiy vositachilik safari chog'ida yuz bergan. Gulbadanbegimning asari bu jihatdan alohida qimmatga ega. U erkak tarixchilar e'tibordan chetda qoldirgan narsalarni – kim kimga qanday sovg'a bergani, to'yni kim tashkil qilgani, nizolarda kim vositachilik qilganini batafsil yozib qoldirgan. Aynan shu "mayda" tafsilotlar orqali Xonzodabegimning xonadondagi haqiqiy nufuzi ko'rinadi. Masalan, katta to'yni tashkil qilish va unga ulkan sovg'alar berish moddiy imkoniyat bilan birga yuqori ijtimoiy maqomni ham talab qilgan. Bu esa begimning Boburiylar xonadonida mustaqil mulk va obro'ga ega bo'lganini ko'rsatadi. Rubi Lalning fikricha, ilk Boburiylar davrida ko'chmanchi saroy hayoti sharoitida oiladagi katta ayollar sulolaning birligini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynagan. Xonzodabegim misoli bu fikrni to'liq tasdiqlaydi. U "garov" sifatida boshlagan hayotini sulolaning eng nufuzli vositachisi sifatida yakunlagan. Xonzodabegim haqiqatan ham o'z taqdirini tanlay olmagan. Uning birinchi nikohi ham, qaytishi ham erkaklar tomonidan hal qilingan. Ammo u bu cheklangan sharoitda ham o'z ovozini topa olgan va o'zi uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlardan maksimal foydalangan. Tarixchi uchun eng qiziq jihat aynan shu: cheklovlar ichidagi erkinlik. Yana bir muhim jihat – manbalar qiyosining o'zi. Bitta voqea haqida to'rtta manba to'rt xil gapiradi. Bobur sukut saqlaydi, Gulbadanbegim sulh haqida yozadi, Muhammad Solih ishq haqida kuylaydi, Abulfazl esa begimning sadoqatini ulug'laydi. Bu farqlar tasodifiy emas: har bir muallif o'z sulolasi va o'z davri manfaatlaridan kelib chiqib yozgan. Shuning uchun Xonzodabegim misoli manbashunoslikda "kim, qachon va kim uchun yozgan?" degan savol naqadar muhim ekanini yaqqol ko'rsatadi. Bundan tashqari, Xonzodabegim taqdiri XVI asr boshidagi siyosiy jarayonlarning shiddatini ham yaqqol ko'rsatadi. O'n yil ichida u uch sulola – Temuriylar, Shayboniylar va Safaviylar qo'lidan o'tdi, ikki marta turmush qurib, ikki marta yo'qotish ko'rdi. Uning hayotidagi har bir burilish mintaqadagi katta siyosiy o'zgarishlarga to'g'ri keladi: Samarqandning Shayboniylar qo'liga o'tishi, Shayboniylarning Marvda mag'lub bo'lishi, Boburning Movarounnahrdan Hindistonga yo'l olishi. Shu ma'noda, Xonzodabegim biografiyasi davrning o'ziga xos "ko'zgusi" vazifasini bajaradi. An'anaviy tarixshunoslikda ayollar ko'pincha faqat hukmdorlarning xotinlari, onalari yoki qizlari sifatida, ya'ni erkaklar biografiyasining qo'shimchasi sifatida tilga olinadi. Ayollar tarixi yondashuvi esa ularni mustaqil tarixiy shaxslar sifatida ko'rishni

[18] Gulbadan Begam. The History of Humāyūn. – B. 175.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

taklif qiladi. Xonzodabegim misolida bu yondashuv o'zini to'liq oqlaydi: manbalarni diqqat bilan o'qiganda, uning ovozi, qarorlari va ta'siri aniq ko'rinadi.

XULOSA:

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, Xonzodabegimning Shayboniyxon bilan nikohi XVI asr manbalarida uch xil – asirlik "Boburnoma", sulh sharti "Humoyunnoma" va ishq nikohi "Shayboniynoma" sifatida talqin qilingan. Bu talqinlardagi farqlar mualliflarning sulolaviy mansubligi va yozilish vaqti bilan bog'liq.

Ikkinchidan, bu nikoh Shayboniyxon uchun Temuriylar merosiga da'vosini mustahkamlovchi ramziy vosita, Bobur uchun esa og'ir harbiy vaziyatdan chiqishning yagona yo'li bo'lgan.

Uchinchidan, "Akbarnoma"dagi ajrashish sababi haqidagi ma'lumot Xonzodabegim Shayboniyxon saroyida ham o'z oilasi manfaatlarini himoya qilgan faol shaxs bo'lganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, Shoh Ismoilning begimni Boburga qaytarishi Safaviylar va Bobur o'rtasidagi ittifoqning boshlanishiga xizmat qilgan diplomatik qadam edi.

Beshinchidan, Xonzodabegim hayoti sulolaviy nikohlarda ayol faqat "garov" emas, balki sharoit imkon bergan darajada faol siyosiy ishtirokchi ham bo'lganini ko'rsatadi. Uning taqdiri O'zbekiston tarixshunosligida ayollar tarixini manbalar asosida chuqurroq o'rganish zarurligini ham tasdiqlaydi.

Oltinchidan, Xonzodabegim misoli kelgusidagi tadqiqotlar uchun ham yo'nalish beradi. Shayboniylar va Boburiylar saroyidagi boshqa ayollar – Eson Davlatbegim, Qutlug' Nigorxonim, Mohim begim va boshqalarning siyosiy roli ham manbalar asosida maxsus o'rganishni talab qiladi. Bunday tadqiqotlar O'zbekiston tarixini yanada to'liq va jonli manzarada ko'rish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni munosabati bilan so'zlagan nutqidan 2024.31.avgust.
2. 2). Gulbadan Begam. The History of Humāyūn Transl. A. S. Beveridge. – London: Royal Asiatic Society, 1902.-B.148-156-177
3. 3).Lal R. Domesticity and Power in the Early Mughal World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – B.226.
4. 4).Schimmel A. The Empire of the Great Mughals: History, Art and Culture. – London: Reaktion Books, 2004. – B. 145.
5. 5).Gulbadan Begam. The History of Humāyūn / Transl. A. S. Beveridge. – London, 1902. – B.25.
6. 6).Bobur Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 107.
7. 7).Ahmedov B. A. Государство кочевых узбеков. – M.: Наука, 1965. – B. 388.
8. 8).Bobur Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002.-B.210
9. 9).Gulbadan Begam. The History of Humāyūn, Lal R. Domesticity and Power in the Early Mughal World. – B. 130.
10. 10).Lal R. Domesticity and Power in the Early Mughal World. – B. 130.
11. 11).The Baburnama / Transl. W. M. Thackston. – B. 11.
12. 12).Abu'l-Fazl. The Akbar Nāma / Transl. H. Beveridge. – Vol. 1. – B. 222.
13. 13).Babur Nama / Transl. A. S. Beveridge; ed. D. Hiro. – B. 198.
14. 14).Abu'l-Fazl. The Akbar Nāma / Transl. H. Beveridge. – Vol. 1. – B. 134

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

15. 15). Erskine W. A History of India under the Two First Sovereigns of the House of Taimur, Báber and Humáyun. – Vol. 1. – London: Longman, Brown, Green, and Longmans, 1854. – B. 325–327.
16. 16). McChesney R. D. Central Asia: Foundations of Change. – Princeton: Darwin Press, 1996. – B. 234.
17. 17).Gulbadan Begam. The History of Humāyūn. – B. 126–128.
18. 18).Gulbadan Begam. The History of Humāyūn. – B. 175.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.